
**INTERNETDA QIDIRUV TIZIMLARI VA ULARNING TURLARI.
INTERNET RESURLARI VA ULARDAN TIBBIY TA’LIM O‘QUV
JARAYONIDA FOYDALANISH.**

Abdullayeva Sanobar Berdiyevna

Samarqand davlat tibbiyot universiteti assistenti

Doniyorova Mohinur Nizomiddin qizi

Samarqand davlat tibbiyot universiteti talabasi

Madatova Maftuna Aktamovna

Samarqand davlat tibbiyot universiteti talabasi

Annotatsiya: *Hozirgi kunda internetning WWW xizmati kundan-kunga rivojlanib mukammal ma’lumotlar manbaasiga aylanib bormoqda. Uning yordamida istalgan sohada, istalgan mavzuda va istalgan vaqtda ma’lumotlarni qidirib topish, ulardan foydalanish, zarur bo’lsa ulardan nusxalar olish mumkin. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari internet texnologiyalari va hizmatlari bilan bog’langan. Ta’lim tizimi oldida elektron axborot muhitida maxsus ko’nikma va malakalarga ega, raqobatbardosh shaxslarni voyaga yetkazish vazifalari turadi. Ushbu maqolada internet resurslari va ulardan tibbiy ta’lim o’quv jarayonida foydalanish to’g’risida ma’lumotlar yoritilgan.*

Kalit so’zlar: *Internet resurslari, tibbiyot, ta’lim, talaba, qidiruv tizimlari, zamonaviy texnologiyalar.*

KIRISH

Ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalari va internetdan foydalanish dunyoda masofaviy o’qitishning, ochiq ta’lim tizimining muhim bo’g’ini sifatida keng qo’llaniladi, uning sifatini yuqori ko’tarish omillaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, oliy pedagogik ta’lim tizimida turli fanlarni o’qitishda keng joriy etilmoqda. O’quv jarayonida yangi axborot texnologiyalarni qo’llash, pedagogik metodlarning samaradorligini oshirishga, pedagoglarning mehnat faoliyatini o’zgarishiga, ularning ish uslublarini takomillashishiga, pedagogik tizimlarning strukturaviy o’zgarishiga olib keladi. Bu

esa pedagogik jarayonlarni boshqarishni tashkil etish va boshqarishda o‘ziga xos vazifalarni qo‘yadi.

Internet tarmog‘idagi qidiruv tushunchasi shuni anglatadiki, bunda har bir foydalanuvchi o‘ziga kerakli bo‘lgan biror ma‘lumot yoki materialni maxsus qidiruv tizimlari orqali topish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Internet-bepoyon axborot ummoni. Axborotlar internetda millionlab Web sahifalarda saqlanadi. Bizga kerakli axborot saqlanadigan Web-sahifani topish uchun uning internetdagi adresini bilish zarur. Ammo internet soat sayin yangi axborotlar bilan boyib boradi. Internet tarmog‘i foydalanuvchilari qidiruvni internet muhitida joylashgan vebsaytlar, ularning manzili va ichki ma‘lumotlari bo‘yicha olib borishi mumkin. Bu esa foydalanuvchiga kerakli bo‘lgan axborotni samarali qidirish va tez topish imkoniyatini beradi. Internet tarmog‘i shunday bir muhitki, u o‘zida turli ko‘rinishdagi va turli tillardagi ko‘plab axborotlarni jamlagan. Bunda ushbu axborotlar ichidan kerakli bo‘lgan ma‘lumotlarni qidirib topish muammosi paydo bo‘ladi. Internet tarmog‘ida har bir foydalanuvchi axborotni qidirish uchun o‘zbek, rus, ingliz yoki boshqa tillardagi bir yoki bir necha so‘zdan tashkil topgan so‘rovlardan foydalanadi. Ya‘ni ma‘lumotlarni uning sarlavhasi yoki uning tarkibida ishtirok etgan so‘zlar va jumlar bo‘yicha qidirib topish mumkin. Bunda foydalanuvchi tomonidan internet qidiruv tizimi qidiruv maydoniga kerakli ma‘lumotga doir so‘z yoki jumla kiritiladi va qidiruv tizimi ishga tushiriladi. Shundan so‘ng qidiruv tizimi foydalanuvchiga o‘zi tomonidan kiritilgan so‘z yoki jumlagacha mos keluvchi ma‘lumotlarni qidirib topadi va kompyuter ekranida ularning ro‘yxatini hosil qiladi. Vanihiyot ro‘yxatdagi ma‘lumotlarni ketma-ket ko‘rib chiqilib kerakli bo‘lganlari kompyuterga saqlab olinadi.

MUHOKAMA: Internet tarmog‘ida ma‘lumotlarni qidiruv - bunda har bir foydalanuvchi o‘ziga kerakli bo‘lgan biror ma‘lumot yoki materialni maxsus qidiruv tizimlari orqali topish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Hozirgi kunda ta‘lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan kirib kelishi bilan birga, u ta‘limning samaradorligini oshirishda eng qulay omillardan biri bo‘lib qolmoqda. Shuning uchun ham ilg‘or mamlakatlar ta‘lim tizimida kompyuter texnikasidan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanishga qaratilgan izlanishlar to‘xtovsiz kechmoqda.

Internet resurslari va ulardan foydalanish usullari haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, internet resurslarini har xil ko‘rinishdagi axborotlar tashkil etadi. Internet

resurslaridan foydalanish internetning har xil xizmatlari yordamida amalga oshiriladi. Mavjud xizmatlarni bilish, konkret xizmatlarga murojaat qila bilish va qo‘yilgan masalani yechish usullarini to‘g‘ri tanlash tarmoqda ishlash samarasini belgilaydi.

Internet xizmatlarini quyidagi xizmatlarga ajratish mumkin.

- Interaktiv xizmatlar;
- To‘g‘ri murojaat qilish xizmatlari;
- Keyinchalik o‘qishga mo‘ljallangan xizmatlar; Bu xizmatlar ko‘p tarqalgan bo‘lib, ular ancha universal va kompyuter resurslariga hamda aloqa tizimlariga bo‘lgan talablari kamroq hisoblanadi. Bu sinfning asosiy belgisi-axborot olishga berilgan talab bilan uni olish vaqti orasidagi tafovut katta bo‘lishi mumkin.

• Internetga resurslarni joylashtirish va ko‘chirib olish. Internet resurslari xilma-xildir. Ularning ichida ham foydali ham zararli bo‘lganlari ma‘lumotlar uchraydi.

Ta‘limga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hodisalar va jarayonlarni kompyuterda modellapggirishdir. Kompyuter modellari an‘anaviy darsning tarkibiga hamohang bo‘lishi va pedagog-o‘qituvchiga kompyuter ekranida, ko‘pgina effektlarni namoyish etishiga, talabalarning yangi, noan‘anaviy o‘quv faoliyatini tashkil etishga yordam beradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘quv jarayoniga joriy etishni asosan 3 ta yo‘nalishda olib borish mumkin:

- axborot-o‘rgatuvchi tizimlar (ma‘lumotlar bazasi, bilimlar bazasi, ekspert-o‘rgatuvchi dasturlar)ni qo‘llash;
- elektron o‘quv nashrlari va dasturlaridan foydalanish;
- telekommunikatsiya vositalaridan foydalanish.

XULOSA: Shuni aytish joizki, internetdagi qidiruv tizimlari va ularning turlari haqida ma‘lumotga ega bo‘lish, internet resurslarini o‘rganish va ulardan tibbiy ta‘lim o‘quv jarayonida foydalana bilishi, kompyuter savodxonligiga ega bo‘lgan pedagoglar oldida keng imkoniyatlarni ochadi.

- axborot yig‘ishning yangi usullarini va ularni qo‘llashni bilib oladilar;
- talabalarning fikrlash doirasi kengayadi, bilim olishga qiziqishlari ortadi;
- mustaqil ishlashning roli ortadi, samaradorligi yaxshilanadi;
- talabalarni aqliy jihatdan rivojlantirishga, ularning hissiy-estetik doirasini kengaytirishga, ijobiy qobiliyatlarini o‘stirishga yordam beradi. Masalan, axborot texnologiyalaridan foydalana oladigan pedagog o‘zining barcha ma‘ruza darslarini

ko‘rgazmali qilib tashkil etish mumkin. Zamonaviy axborotlashgan jamiyat pedagog kadrlar tayyorlash sifatiga alohida talablar qo‘yadi. Zamonaviy pedagog kadrlar internetning axborot resurslaridan maqsadli foydalana olishi, mustaqil bilimlarni olish jarayonida axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalari imkoniyatlarini joriy etishi talab etiladi. Butun jahon miqyosidagi axborot tarmog‘i har qanday sohada axborotning hajmi va tezligidan qat‘iy nazar, uni istagan miqdorda qabul qilish uchun taqdim eta oladi. Multimediya va internet texnologiyalarining paydo bo‘lishi axborot texnologiyalarining oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim va tarbiya, muloqot jarayonlarida samarali vosita sifatida foydalanishga keng yo‘l ochib bergani buning yaqqol dalilidir. Axborot texnologiyalarining barkamol shaxsni rivojlantirish, uning mustaqil kasb tanlashi va kasbiy jihatdan o‘z-o‘zini shakllantirish, kasbiy mahoratini o‘stirishda tutayotgan o‘rni va ta‘siri ortib borayotganligini inkor etib bo‘lmaydi. Internet resurslari va axborot texnologiyalaridan foydalanib, ta‘lim sohasida, o‘quv faoliyatida va talabalar ijodiy tafakkurini rivojlantirishda yangi imkoniyatlar yaratiladi. Axborot texnologiyalari ta‘limni amalga oshish jarayonida hayot bilan uyg‘unlashtirishga imkon beradi.

Adabiyotlar

- 1) Abdullayeva S., Maxmudova Z., Xujakulov S. TIBBIY TA‘LIMDA VR TEXNOLOGIYA //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – T. 2. – №. 11. – C. 1140-1144.
- 2) Berdiyevna, A. S., & Olimjonovna, T. F. (2022). INNOVATIVE APPROACHES IN THE EDUCATION SYSTEM TO INCREASE YOUTH PARTICIPATION. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(3), 674-677.
- 3) Toxirova, F. O., Malikov, M. R., Abdullayeva, S. B., Ne‘matov, N. I., & Rustamov, A. A. (2021). Reflective Approach In Organization Of Pedagogical Processes. European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 7(03), 2020.
- 4) Berdiyevna, A. S., Fazliddinovich, S. R., & Uralovich, R. N. (2022). Use of Information Technology in Improving the Quality of Education. Eurasian Research Bulletin, 14, 134-138. Abdullayeva, S. B., & Dosmurodova, S. S.

- (2022). THE ROLE OF THE FAMILY IN THE FORMATION OF VALUE DIRECTIONS IN YOUTH. *Procedia of Theoretical and Applied Sciences*, 1(1), 93-95.
- 5) Berdiyevna, A. S., & Shokirovich, X. S. (2023). Prospective Directions of Implementation of Modern Information Technologies in Education. *Eurasian Journal of Research, Development and Innovation*, 17, 7-11.
- 6) Berdiyevna, A. S., Akramovna, M. M., & Olmasovna, R. P. (2023). Research in the Process of Education of Medical Students Shaping Their Abilities. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, 17, 95-99.
- 7) Berdiyevna, A. S., Ilhomovna, M. Z., & Ogli, K. S. S. (2023). Modern methods of information exchange in polyclinic conditions. *Genius Repository*, 25, 16-20.
- 8) Abdullayeva, S., Maxmudova, Z., & Xo'jaqulov, S. (2023). MODERN METHODS OF INFORMATION EXCHANGE IN POLYCLINIC CONDITIONS. *Modern Science and Research*, 2(10), 304-310.
- 9) Berdiyevna, A. S. (2024). AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI VA VOSITALARIDAN TA'LIM JARAYONIDA FOYDALANISHNING ISTIQBOLLI YONALISHLARI VA KELAJAGI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 4(2), 152-157.
- 10) Абдуллаева, С., & Раупова, Р. (2024). ТАЪЛИМ ВА ТАРБИЯ МЕТОДЛАРИ ВА ВАЗИФАЛАРИНИ ЎРГАНИШ-БЎЛАЖАК ПЕДАГОГЛАР ФАОЛИЯТИНИНГ АСОСИЙ ОМИЛИДИР. *Modern Science and Research*, 3(1), 91-97.
- 11) Ilhomovna, M. Z., Berdiyevna, A. S., Shaxboz o'g'li, Y. T., & Mirkobilovna, S. R. (2023). The Importance of IT Technologies in Ultrasound Examinations. *Journal of Intellectual Property and Human Rights*, 2(12), 121-125.
- 12) Berdiyevna, A. S., Sobirovich, S. O., & Ibrahimovna, N. N. (2023). Distinctive Features of the Distance Learning System in Medical Education: the Opportunity to Learn at a Convenient Time, Place and Environment. *Journal of Intellectual Property and Human Rights*, 2(12), 33-38.

- 13) Абдуллаева, С. Б. (2023). ТИББИЁТДА ТАЛАБАЛАРГА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ВА ЖАРАЁНЛАРНИ МАТЕМАТИК МОДЕЛЛАШТИРИШ ФАН МОДУЛИНИ ЎРГАТИШДА МОТИВАЦИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(12), 27-30.
- 14) Berdiyevna, A. S., Eshmamatovna, D. N., & Shukhratovna, D. S. (2023). THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN MEDICAL DISEASE PREDICTION. EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE, 3(3), 5-9.
- 15) Berdievna, A. S., & Shokirovich, K. S. (2024). The Role of it in the Field of Medicine, Use Of Computer Technology In Modern Diagnostic Methods. Miasto Przyszłości, 51, 162-166.